



**1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi**

1. Bu katta anjumanga, bayramga shoir va yozuvchilar ham taklif etildi.

Berilgan gapda qaysi gap bo'lagi ajratilgan?

- A. Ega
- B. To'ldituvchi, ega
- C. To'ldiruvchi
- D. Hol

2. Aniqlovchi qanday gap bo'laklariga bog'lanadi?

- A. Ega, to'ldiruvchi, kesim
- B. Ega, to'ldiruvchi, kesim, hol
- C. Ega, hol, kesim
- D. To'ldiruvchi, hol, kesim

3. Mashg'ulot haftada bir marta o'tadigan bo'ldi?

Berilgan gapda kesim haqidagi to'g'ri hukmni belgilang.

- A. Qo'shma kesim
- B. Soda kesim
- C. Ot kesim
- D. Murakkab kesim

4. Qaysi gapda tub shaxs otlari qatnashgan?

- A. Oyim shifokor, shuning uchun shifoxonaga ketadilar.
- B. Davraga raqqosa juda go'zal hirom etdi.
- C. Mening tog'am haydovchi, boshqa shaharlarga yuk tashiydi.
- D. Zar qadrini zargar bilar.

5. Teng bog'lovchilar qanday turlarga bo'linadi?

- A. Biriktiruv, zidlov, ayiruv, inkor bog'lovchilari
- B. Biriktiruv, zidlov, ayiruv, ergashtiruvchi bog'lovchilari
- C. Shart, sabab, aniqlov, zidlov, biriktiryuv bog'lovchilari
- D. Ayiruv-chegaralov, zidlov, biriktiruv bog'lovchilari

6. Fe'ning qaysi vazifa shakli egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalari bilan birga keladi.

- A. Sof fe'l
- B. Sifatdosh
- C. Ravishdosh
- D. Harakat nomi

7. Qaysi qatorda gumon, shodlik, achinish ma'nolarini bildiradigan modal so'zlar berilgan?

- A. Hoynahoy, esizgina, shukur, shekilli, baxtimga
- B. Haqiqatdan, ehtimol, baxtga qarshi, ayniqsa, asosan
- C. Demak, xususan, avvalo, afsuski, balki
- D. Aks xolda, sizningcha, nihoyat, shekilli, mayli





8. Qaysi javobda vazifadosh ko'makchilar berilgan?

- A. Tomon, ko'ra, tortib, o'rta, qaraganda, keyin
- B. Yon, ost, ust, ich, teoa, orqali
- C. Tag, tomon, qaraganda, qarab, so'ng, singari
- D. Avval, keyin, so'ng, ko'ra, bo'ylab, sayin

9. Majhul nisbatdagi so'zlarni aniqlang.

- 1. Bola qoqildi
  - 2. Tut qoqildi
  - 3. Hamma bezandi
  - 4. Suv quyildi
  - 5. Qizcha maqtandi
  - 6. Bolalar kiyindi
  - 7. Paxtalar terildi
  - 8. Qo'ng'iroq chalindi
- A. 1.3.5.7
  - B. 2.4.7.8
  - C. 3.6.7.8
  - D. 4.5.6.7

10. Bilimli .... kuchi ming ..... yetar, bilimsiz..... kuchi bir..... yetar.

Nuqtalar o'rniga kerakli qo'shimchalarni qo'ying.

- A. -ning, -ga, -ning, -ga
- B. -ni, -ga, -ni, ga
- C. -ga, -ning, -ga, ning
- D. -ni, -da, -ni, -da

**2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi**

11. Jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigini olgan so'z kimga?, nimaga, kimda?, nimada?, kimdan?, nimadan?, kim haqida nima haqida?, kim bilan?, nima bilan? kabi so'roqlarga javob bo'luvchi to'ldiruvchi qanday to'ldiruvchi hisoblanadi?

- A. Vositali to'ldiruvchi
- B. Vositasiz to'ldiruvchi
- C. To'ldiruvchi
- D. Vositali va vositasiz to'ldiruvchi

12. Me'moriy bezak san'ati

Yogoch o'ymakorlik san'ati

Badiiy kulolchilik san'ati

Berilgan so'zlarning tarjimasini qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Искусство архитектуры, национальная вышивка, орнамент узор





- B. Искусство архитектуры, резьба по дереву, художественное гончарное мастерства  
C. Искусство архитектуры, ювелирное мастерства, виды искусства  
D. Виды искусства, резьба по ганчу, резьба по дереву

13. 1. Bolalar Azizani intizorlik bilan kutdilar.  
2. Anvar amakimlar juda mehribonlar.  
3. Soat uchlarda kelaman.  
4. Kechqurunlari havi salqin.

- a) Taxmin ma'nosini  
b) Ko'plik ma'nosini  
d) payt ma'nosini  
e) hurmat ma'nosini

Berilgan to'g'ri hukmni belgilang.

- A. 1-a, 2-b, 3-d, 4-e  
B. 1-d, 2-a, 3-e, 4-b  
C. 1-e, 2-b, 3-a, 4-d  
D. 1-b, 2-e, 3-a, 4-d

14. –lar ko'plik qo'shimchasi bilan ma'nodoshlik hosil qila oladigan qo'shimcha to'g'ri berilgan javobni toping.

- A. Birgalik nisbat qo'shimchasi  
B. Buyruq-istak mayli qo'shimchalari  
C. Ot yasovchi qo'shimchalar  
D. Bunday qo'shimcha mavjud emas.

15. Kitob haqida aytilgan ushbu ta'riflarning qaysi biri Asqad Muxtorga tegishli?

- A. Kitoblar jonsiz, ammo sodiq do'stdir.  
B. Yaxshi kitob muallifning odamzod uchun atalgan tortig'idir.  
C. Kitob boylik. Lekin uni sotib olingani emas, o'qilgani.  
D. Kitob sehrGAR. Kitob dunyoni qayta qurdi. Unda odamzotning aqli mujassam, u kishilik tafakkurining ustuni. Kitobsiz olam yovvoyilar olamidir.

16. Voy-bo' // bo'ylaring buncha o'sib ketibdi // bolam //  
// belgilari o'rnida qanday tinish belgisi ishlatiladi?

- A. Vergul, tire, undov belgisi  
B. Vergul, vergul, so'roq belgisi  
C. Vergul, vergul, undov belgisi  
D. Vergul, vergul, nuqta

17. Ravishdoshlarning –b (-ib), -a (-ay) qo'shimchali shakllari ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari tarkibida qanday vazifani bajarib keladi?

- A. Ot-kesim vazifasini bajaradi  
B. Yetakchi fe'l vazifasini bajaradi





- C. Fe'l-kesim vazifasini bajaradi  
D. Ko'makchi vazifasini bajaradi.

18. 1. 1909-yilda Istanbulga o'qishga bordi.  
2. Birinchidan an'anaviy sharqona bilimlardan, ikkinchidan yevropacha tahsil va tarbiyadan baxra, and bo'ldi.  
3. Turkistonda jadidchilik harakatining asoschisi hisoblanadi.  
4. O'z davri boshlang'ich maktablari uchun bir nechta o'quv qo'llanmalar yaratgan.

Ushbu ma'lumotlar qaysi jadidlarimiz haqida?

- A. 1-Cho'lpon, 2-Fitrat, 3-Avloniy, 4-Behbudiy  
B. 1-Behbudiy, 2-Avloniy, 3-Fitrat, 4-Cho'lpon  
C. 1-Avloniy, 2- Behbudiy, 3-Cho'lpon, 4-Fitrat  
D. 1-Fitrat, 2-Cho'lpon , 3-Behbudiy, 4-Avloniy

19. Quyida berilgan qaysi gaplar tarkibidagi so'zlarda tovush orttirilishi hodisasi yuz bergan?

1. Bizning hovlimizda ulkan chinor daraxti bor.  
2. Shundan so'ng hamma namoyishchilar uylariga tarqalishdi.  
3. Bundan zavqlangan bolalar tadbir tashkilotchilariga minnatdorchilik bildirishdi.  
4. Xiva xorazmning qadimiy shaharlaridan biri.  
5. Muslimbek o'shandan beri elning ko'ziga ko'rinishni istamay qoldi.  
6. Necha asrdan beri uning rangi o'chmagan.

- A. 3.4.5  
B. 2.3.5  
C. 1.2.5  
D. 2.5.6

20. "Tahsin" so'zini rus tiliga tarjima qiling.

- A. Уважение  
B. Почтение  
C. Достойный  
D. Одобрение

**3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi**

21.

1. Registon  
2. Ark qal'asi  
3. Ichan qal'a  
4. Paxlavon Mahmud maqbarasi  
5. Somoniylar maqbarasi  
6. Shohi Zinda maqbarasi  
7. Bibixonim madrasasi  
8. Dishan qal'a  
9. Go'ri Amir maqbarasi  
a) Samarqand  
b) Buxoro





d)Xiva

Berilgan me'moriy obidalarning qaysi qadimiy shaharlarda joylashganini toping.

- A. 1,5,7,9 – a; 6,5-b; 3,4,8 – d  
B. 1,6,7,8 – a; 3,5 – b; 4,5,9 – d  
C. 1,6,7,9 – a; 2,5 – b; 3,4, 8 – d  
D. 1,2,4,6, - a; 3,5 – b, 7,8,9 – d

22. –t, -sh, - sat, -sa, -sin, -ay, -in, -iz, -ir, -kaz, -qiz, -dir. Berilgan qo'shimchalardan qaysilari orttirma nisbat qo'shimcha hisoblanadi.

- A. –t, -sh, -sa, -sin  
B. –t, -iz, -kaz, -sat, -qiz  
C. –dir, -qiz, -kaz, -ir, -ay  
D. –iz, -dir, -in, -t, -sh

23. “Sakkiz yoshli do'mboqqina bola har kun ertalab Amu sohili bo'ylab aylanib yurar, har xil o't, giyoh, gullarni, shuningdek, har xil meva, don va mayda toshlarni yig'ishga oshiqardi.”

Berilgan ushbu parchada qaysi buyuk alloma haqida ma'lumot berilgan?

- A. Abu Rayhon Beruniy  
B. Abu Ali ibn Sino  
C. Ahmad al-Farg'oniy  
D. Al-Xorazmiy

24. O'rta osiyo miniatyura maktablari qaysi asrlarda yuqori darajada rivojlangan?

- A. XVI-XVII asrlarda  
B. XVII-XVIII asrlarda  
C. XIV-XVI asrlarda  
D. X-XV asrlarda

25. Yana bir maslahat // bir yilda ikki marta tish shifokoriga ko'rigidan o'tibturing va albatta// ularning maslahatlariga quloq tuting//

Gapda // belgisining o'rniga tinish belgilari to'g'ri qo'yilgan javobni aniqlang.

- A. Ikki nuqta, vergul, vergul, undov  
B. Tire, vergul, nuqta  
C. Tire, vergul, nuqta  
D. Ikki nuqta, vergul, nuqta

26. “Bir kuni u Yasagan prizmasini quyosh nuriga tutganda, ko'ringan kamalak nurlarga qarab, “Qanday ajoyib nurlar”, deya quvondi. O'zi yuradigan qurilmalar, suv tegirmoni, parraklar.... Hammasi zo'r!”

Berilgan parcha qaysi buyuk kashfiyotchi haqida?

- A. Albert Eynshteyn  
B. Maykl Faradiy  
C. Isaak Nyuton  
D. Aleksandra Volta





27. 1957-yilda "O'zbek tilida tarixiy so'z yasalishi masalalari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan o'zbek olomi kim?
- A. Ayub G'ulomov  
B. Mazluma Asqarova  
C. Azim Hojjiyev  
D. Sa'dulla Hakim
28. Harakat nomi haqidagi qaysi hukm to'g'ri?
- A. Harakat nomi ot kabi egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalari bilan birga keladi.  
B. Harakat nomi sifatlar kabi ot o'rnida qo'llanish xususiyatiga ega bo'ladi.  
C. Gapda harakat nomi bog'langan ot tushib qolganda, harakat nomi uning so'roqlariga javob berib, gapdagi vazifasini bajarib keladi.  
D. Berilgan ta'riflarning har uchchalasi ham harakat nomiga xos.
29. 1. Ustoz ko'rmagan shogird...  
2. To'dadan ajralgan...  
3. Bilgan bilganini ishlar ....  
4. ishlagan yerni yashnatar...  
5. Ilmli ming yashar...
- a) Ishlamagan qaqshatar.  
b) Imsiz bir yashar  
d) To'rga tushar  
e) har maqomga yo'rg'alar  
f) bilmagan barmog'in tishlar
- A. 1-a, 2-b, 3-d, 4-e, 5-f  
B. 1-b, 2-a, 3-e, 4-d, 5-f  
C. 1-e, 2-d, 3-f, 4-a, 5-b  
D. 1-d, 2-e, 3-a, 4-f, 5-b
30. Berilgan gaplar qaysi bog'lovchilar yordamida bog'langan?
1. Goho boshim og'riydi, gohida ko'nglim ayniydi.  
2. Kiyimlaringizni va choyshablaringizni toza tuting.  
3. Madrasalar juda qadimiy, ammo hali ham o'z tarovatini yo'qotmagan.
- A. 1 - birikturiv bog'lovchisi yordamida bog'langan.  
2 - birikturiv bog'lovchisi yordamida bog'langan.  
3 - zidlov bog'lovchisi yordamida bog'langan.
- B. 1 - ayiruv bog'lovchisi yordamida bog'langan.  
2 - biriktiruv bog'lovchisi yordamida bog'langan.  
3 - zidlov bog'lovchisi yordamida bog'langan.
- C. 1 - zidlov bog'lovchisi yordamida bog'langan.





- 2 – biriktiruv bog'lovchisi yordamida bog'langan.
- 3 – zidlov bog'lovchisi yordamida bog'langan.

- D. 1 – inkor bog'lovchisi yordamida bog'langan.
- 2 – biriktiruv bog'lovchisi yordamida bog'langan.
  - 3 – ayiriv bog'lovchisi yordamida bog'langan.

